

Dadajonov Oybek Zokirjonovich, Farg'ona davlat universiteti, Nemis va fransuz tillari kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: oybek.dadajonov.89@inbox.ru +99891 397 47 39 ORCID ID: 0000-0003-3797-7782



NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA KISHILIK OLMOSHLARNING QIYOSIY TAHLILI

<https://zenodo.org/records/18765796>

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi kishilik olmoshi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki til tizimida kishilik olmoshlarining grammatik xususiyatlari, morfologik shakllanishi, sintaktik vazifalari hamda semantik-pragmatik jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, ikki tildagi kishilik olmoshlarining farqli va o'xshash tomonlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nemis tili, o'zbek tili, tahlil, kishilik, shaxs, olmosh, qiyosiy tahlil, grammatika, kelishik, tilshunoslik

COMPARATIVE ANALYSIS OF PERSONAL PRONOUNS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article presents a comparative analysis of personal pronouns in German and Uzbek. The study examines the grammatical features, morphological formation, syntactic functions, and semantic-pragmatic aspects of personal pronouns in both language systems. Furthermore, it identifies and discusses the similarities and differences between personal pronouns in the two languages.

Keywords: German language, Uzbek language, analysis, personal, person, pronoun, Comparative analysis, Grammar, Case (grammatical case), Linguistics

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИЧНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье проводится сопоставительный анализ личных местоимений в немецком и узбекском языках. В исследовании рассматриваются грамматические особенности, морфологическое оформление, синтаксические функции, а также семантико-прагматические аспекты личных местоимений в обеих

языковых системах. Кроме того, выявляются и описываются сходства и различия личных местоимений в двух языках.

Ключевые слова: немецкий язык, узбекский язык, анализ, личное, лицо, местоимение, Сравнительный анализ, Грамматика, Падеж, Лингвистика

Kirish.

Olmoshlar tilning muhim elementi hisoblanib, ot, sifat, son kabi mustaqil soʻz turkumlarining oʻrnida kela oladi. Turli tilda olmoshlar oʻziga xos boʻlishiga qaramay, maʼlum bir umumiy jihatlariga ham ega. Nemis va oʻzbek tillari turli til oilalariga (nemis tili german tillari oilasiga, oʻzbek tili esa turkiy tillar oilasiga) mansub boʻlishiga qaramasdan, olmosh leksik-grammatik tizimlarida oʻziga hos oʻxshash va farqli jihatlar kuzatiladi. Olmoshlarining muloqot vaqtidagi vazifasi va ahamiyati oʻziga xos boʻlib, gapda takrorlanishlarni oldini oladi. Kishilik olmoshlari til tizimining eng muhim birliklaridan biri boʻlib, ular nutq jarayonida subyekt va obyekt munosabatlarini ifodalaydi. Nemis tilida kishilik olmoshlari masalasi fundamental grammatik manbalarda keng yoritilgan. Xususan, Helbig, Gerhard va Buscha, Joachim [1] muallifligidagi, shuningdek Zamonaviy nemis tilshunosligida olmoshlar funksional-grammatik va matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan ham oʻrganilgan. Masalan, Eisenberg, Peterning *Grundriss der deutschen Grammatik* [2] asarida olmoshlar sintaktik pozitsiya va referensial xususiyatlari asosida tahlil qilinadi. Dudenredaktion [3] tomonidan nashr etilgan *Duden – Die Grammatik* qoʻllanmasida olmoshlar normativ qoʻllanishi, stilistik xususiyatlari va zamonaviy nemis tilidagi oʻzgarishlar tahlil qilingan va ilmiy tahlil qilingan. Oʻzbek tilida kishilik olmoshlari masalasi ilk bor tizimli ravishda akademik nashrlarda yoritilgan. Xususan, *Oʻzbek tili grammatikasi* (1996) [4] asarida olmoshlar alohida soʻz turkumi sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, *Hozirgi oʻzbek adabiy tili* [5] darsligida kishilik olmoshlarining morfologik va sintaktik xususiyatlari kengroq izohlanadi. Ushbu manbalarda olmoshlarining gapdagi vazifalari (ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi) hamda ularning semantik xususiyatlari koʻrsatib berilgan.

Toʻliq ot va ismlar oʻrniga olmosh ishlatiladi, bu esa matnni silliqroq qilishga yordam beradi. Bundan tashqari olmosh oldin tilga olingan yoki bilvosita maʼlum boʻlgan shaxslar, narsalar yoki voqealarga murojaat qilish imkonini beradi. Deklinatsiya (oʻzgarish) orqali grammatik bogʻlanish, bu koʻp hollarda kelishiklarda aniq koʻrsatiladi. Nemis va oʻzbek tillarida quyidagi koʻrinishga ega.

Mein Freund besucht mich oft. [6]

Ushbu gap Akkusativ (tushum kelishigi) da turibdi.)

Doʻstim meni tez tez koʻrgani kelib turadi.

Tarjimada tushum kelishigi kontekst va yordamchi soʻzlar orqali koʻrsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Biz quyida ikki tilda kishilik olmoshlarining ishlatilish vazifalari hamda oʻziga xos va farqli jihatlarini koʻrib chiqamiz. Nemis tilida kishilik olmoshlari (Personalpronomen) shaxs olmoshlari deb ham yuritiladi. Ular quyidagilar: ich, du, er, sie, es, wir, ihr, sie, Sie (hurmat shakli). Ular ot oʻrnida qoʻllanilib, shaxs yoki predmetni ifodalab keladi. Kishilik olmoshlar

allaqachon tilga olingan otni almashtirish, o'zimiz yoki boshqa odamlar haqida gapirish hamda muloqot qilish imkonini beradi.

Ich *begleite die Gäste.* (Nominativ - bosh kelishigi).

Ushbu gapda *ich – men* olmoshi o'zgarishsiz shaklda qo'llanilmoqda va shu orqali bosh kelishikda ekanligini ko'rib turibmiz.

*Meine Freundin wohnt an der Nordsee und sie lädt **mich** ein.* [7] (Akkusativ - tushum kelishigi). Bu gapda esa *ich* olmoshi *mich* tarzida, ya'ni o'zgarish bilan qo'llanilmoqda hamda shu bilan akkusativ kelishigida ekanligini bildirmoqda.

Das ist mein Buch. (Genetiv – qaratqich kelishigi).

Qaratqich kelishigida o'zgarishga uchragan *ich* kishilik olmoshi yuqoridagi gapda *mening* degan ma'noni anglatyapti.

Shaxs olmoshlari o'zbek tilida: o'zbek tilida jinsga (artikel va jins kategoriyasi) ga qarab farqlanish mavjud emas; u „er“, „sie“, „es“ ya'ni jins vakiliga ajratmay (u) ma'nolarida ishlatilishi mumkin. Nemis tilidan farqli o'laroq, kelishiklarda o'zgarishi yo'q. Grammatik vazifalarni ko'rsatish uchun postpozitsiyalar yoki qo'shimchalar ishlatiladi.

Men bu kitobni o'qiyapman. Ich lese ein Buch

Men bosh kelishikda va o'zgarishga uchramagan holda qo'llanilmoqda.

U meni ko'rdi. Er sieht mich.

Bu gapda esa u olmoshi jinsga ajratilmagan holda ishlatilyapti. Demak, yuqoridagi gaplardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, nemis tilida murakkab jins va kelishik tizimidan foydalaniladi, o'zbek tilida esa bunday o'zgarishlardan foydalanilmaydi. O'zbek tilida kishilik olmoshlari 3 ta shaxsni birlik va ko'plikda ifodalaydi; – ular kelishiklar bilan turlanadi; *-ni, -ning* qo'shimchalari *men, sen* olmoshlariga qo'shilganda o'zakdagi *n* tushib qoladi; u olmoshiga *-ga, -da, -dan* qo'shimchalari qo'shilsa, bir *n* tovushi orttiriladi kabi bilimlar beriladi; – olmoshlarni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash, ularni kelishikli holatda to'g'ri yozish, so'roqlar yordamida aniqlash va farqlash ko'nikmalari hosil qilinadi. [8]

Natija va muhokama.

Nemis tilida esa *Sie* olmoshi qo'llanilishiga qarab uch holatda ishlatiladi.

1. Uchinchi shaxs birlikda. *Sie schreibt einen Brief.*
2. Uchinchi shaxs ko'plikda. *Sie schreiben einen Brief.*
3. Hurmat shakli *siz* orqali ifodalanadi. *Schreiben Sie einen Brief?*

Ma'no ko'pincha matn mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Hurmat shakli (Höflichkeitsform) ikkala tilda ham bir ma'noga ega. O'xshash tomonlari sifatida shuni ko'rish mumkinki, har ikkala tilda ham birlik va ko'plik kategoriyalari mavjud.

Singular/Birlik

Person	O'zbekcha	Nemischa
1	men	ich
2	sen	du

3	u	er,sie,es
---	---	-----------

Plural/Ko‘plik

Person	O‘zbekcha	Nemischa
1	biz	wir
2	sizlar	ihr
3	ular	sie
2 (formel) (hurmat sh.)	siz	Sie

Ushbu jadval tahlil qilinsa, 1-shaxs so‘zlovchi, 2-shaxs tinglovchi, 3-shaxs esa ismi tilga olinganlar ya‘ni birinchi va ikkinchi shaxslarga kirmaydigan kishilik olmoshlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nemis va o‘zbek tillaridagi olmoshlar tizimini taqqoslashda har ikkala tilda ham olmoshlar tilda muhim o‘rin tutishi, nemis tili o‘zining murakkab kelishik va jinsiy belgilar tizimiga ega ekanligi, o‘zbek tilida esa ko‘proq so‘zlarning shakllanishi va kontekstga asoslanganligini ko‘ramiz. Ushbu tizimlar funksional jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning tuzilmalari va qo‘llanish uslublari farqlidir. Bu ayniqsa ikki tildagi kishilik olmoshlarida yaqqol ko‘rinib turadi. Nemis va o‘zbek tillarida kishilik olmoshlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilda ham kishilik olmoshlari shaxsni va sonni ifodalashda muhim grammatik vosita hisoblanadi. Biroq ularning shakllanishi va qo‘llanishida sezilarli farqlar mavjud. Shuningdek, o‘zbek tilida hurmat shakli “siz” orqali ifodalansa, nemis tilida rasmiy murojaat uchun “Sie” shakli qo‘llanadi va u doimo bosh harf bilan yoziladi. Umuman olganda, har ikki til kishilik olmoshlari tizimi jihatidan o‘xshash funksional vazifaga ega bo‘lsa-da, ularning grammatik tuzilishi va kategoriyalarida tipologik farqlar mavjud. Ushbu qiyosiy tahlil ikki tilning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash va ularni o‘rganishda samarali metodik yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Gerhard Heibig -Joachim Buscha Deutsche Grammatik Ein Handbuch für den Ausländerunterricht LANGENSCHIEDT • VERLAG ENZY
2. Eisenberg, Peterning Grundriss der deutschen Grammatik . Verlag · J.B. Metzler ; ISBN · 978-3-476-05094-6 ; Auflage · 5. Aufl. 2020 ; Sprache · Deutsch ; Umfang · 584 Seiten. Duden - Die Grammatik

3. Struktur und Verwendung der deutschen Sprache. Sätze - Wortgruppen – Wörter.

4. F. АБДУРАҲМОНОВ ЎЗБЕК ТИЛИ ГРАММАТИКАСИ. ТОШКЕНТ. „ЎҚИТУВЧИ. 1996.
5. H. JAMOLXONOV HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI. Talqin» nashriyoti. 2005.
6. Saidov, S. Nemis tili grammatikasi mashqlarda. Toshkent. O‘zbekiston. 2003. – B. 97.
7. [Jin Friederike](#). Grammatik Aktiv. Verlag. Berlin . Cornelsen. – S. 21.
8. Hamrayev M. “Ona tili”. Sharq. Toshkent. 2012-yil. – B. 74
9. Benyaminow J.R. Vergleichende Typologie der deutschen und usbekischen Sprachen, O‘qituvchi Verlag, Taschkent. 1982. S. 236.
10. Nübling D. Namen. Eine Einführung in die Onomastik. – Tübingen. Aufl. Narr Francke Attempto Verlag, 2015.